


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor:
B. Akmedov
BOSHQARMA
2025 yil



Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrası



**BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA
MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH.
(YENGIL ATLETIKA)**

382BTBM2427

(1-kurs Sport faoliyati talabalari uchun)

Bilim sohasi: - 1000000 – Xizmatlar
Ta'lim sohasi: - 1010000 – Xizmat ko'rsatish
Ta'lim yo'nalishlari: - 61010200 – Sport faoliyati (yengil atletika)

Andijon-2025

Ushbu hujjat Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo'lib, to'liq yoki qisman nusxa ko'chirilishi, tarqatilishi yoki ko'paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko'paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o'zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat'iy man etiladi.

Kun	
Avgust 2025	Ushbu sillabus Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “__”-_____ dagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	<p>Tuzuvchi:</p> <p>D.T.O`ktamov Andijon davlat universiteti Fakul’tetlararo jismoniy tarbiya va sport” kafedrası v.b dotsent</p> <p>B.M.Satkulov Andijon davlat universiteti Fakul’tetlararo jismoniy tarbiya va sport” kafedrası o`qituvchisi</p>
	<p>Taqrizchilar:</p> <p>S.S. Niyazov Andijon davlat universiteti Fakul’tetlararo jismoniy tarbiya va sport” kafedrası o`qituvchisi p.f.n</p> <p>I.B.Mirzayev O`zbekiston Yengil atletika federatsiyasi Andijon viloyat bo`limi ijrochi direktori</p>

Mundarija

Yengil atletika o'rgatish metodikasi - 382BTBM2427	4
1. Fan tavsifi.....	4
2. Fanning dastlabki rekvizitlari.....	4
3. Fanning maqsadi	4
4. Ta'lim berish natijalari.....	4
5. Ta'lim berish usullari	5
6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar	5
7. Adabiyotlar	6
8. Soatlar/Kreditlar	8
9. Fanning tarkibiy tuzilishi	8
10. Talabalar bilimni baholash	10
11. Akademik talablar	11

Yengil atletika - 382BTBM2427

1. Yengil atletika faninig tavsifi.

Yengil atletika besh bo'limdan (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'p kurashdan) iborat bo'lib, ularning har qaysisi ham xilma-xil turlarga bo'linadi. Yugurish turlariga Qisqa masofaga yugurish, o'rta masofaga yugurish, va uzoq masofalarga yugurish turlari kiradi. Sakrash turlariga esa balandlikka sakrash, langarcho'p bilan sakrash, uzunlikka sarash xamda uch xatlab sakrashlar kirsa. Uloqtirish turlariga esa- Bosqon uloqtirish, yadro itqitish, lappak uloqtirish, nayza uloqtirish turlarini o'z ichiga oladi. Yengil atletika turli yoshdagi kishilar uchun ajoyib jismoniy mashqlar hisoblanadi. Yengil atletika bilan shug'ullanganda barcha muskullar ishlaydi, organizmdagi yurak qon tomir, nafas olish va boshqa sistemalar faoliyati kuchayadi, natijada modda almashinishi ortishi va odam organizimiga ta'siri ortadi.

Bu sport turiga "Yengil atletika" degan nom berilishi shartli bo'lib, sirtidan qaraganda, Yengil atletika mashqlarining og'ir atletikaga nisbatan Yengil bajarilishiga qarab olingan. Og'ir atletikada odam tashqaridan shtanganing og'irligini yengishga oid harakat bajaradi. Yengil atletikada esa tashqi muhitdan hech qanday og'irlik ta'sir etmasligi sababli og'ir atletika mashqlariga nisbatan Yengil bajarilishiga asoslangan. Yengil atletikada mashq qilganda tashqi muhitdan hech qanday og'irlik ta'sir etmaydi. Uloqtirishlarda faqat snaryadni og'irligining ta'siri bo'ladi xolos. Qolgan turlarda esa tashqi Og'irlik yo'q. Yugurish, sakrashlar og'ir atletikaga nisbatan Yengil bajariladi. Ammo ichki a'zolar, yurak qon-tomir, nal'as olish, asab tizimi va boshqa a'zolar faoliyatidagi jismoniy ta'sirlarga nisbatan kechinmalar juda ham og'ir va davomli o'tadi. Masalan: marafon yugurishda, o'rta va uzoq masofalarga yugurishda va h.k. bunday holatlarning mavjudligi Yengil atletikani og'ir atletikadan ham og'irroq sport turi ekanligi hartomonlama ilmiy asoslab isbotlangan. Ayrim mamlakatlarda Yengil atletikani «atletika» (Fransiyada) yoki «yo'lka va maydondagi mashqlar» (AQSh, Angliyada) deb ataydilar. O'zbekistonda esa bu sport turini "Yengil atletika" deb atash qabul qilingan.

Yengil atletika insonning tabiiy harakatlaridan iborat bo'lgan yurish, yugurish, sakrashlar, uloqtirishga oid harakat amallaridan iborat bo'lib, sport turi sifatida juda qadimdan, dunyo miqyosida keng tarqalgan. U barcha amaliy sport turlari tarkibida bo'lib, ularning samaradorligini oshirishda xizmat qiladi. Odamlarni hartomonlama ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga, sog'ligini mustahkamlashda ham asosiy vositalardan biri bo'lib, barcha yoshdagi odamlarga mos keladigan ommaviy sog'lomlashtiruvchi sport turidir. Yengil atletika o'zining xilma-xil harakat amallari bilan odamlarda tezkorlik, kuchlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamkorlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim o'rinlardan birida turadi.

Yengil atletika mashg'ulotlari kuchlilikni, tezkorlikni, chidamlilikni va boshqa juda ko'p harakat malakalarini oshiradi, irodaviy fazilatlarini tarbiyalaydi. Shuningdek, ularning sog'lomlashtirish ahamiyati ham katta bo'lib, jismoniy kamolotga erishishga yordam beradi. Yengil atletika mashqlarining xilma-xilligi: yurganda, yugurganda, sakraganda va uloqtirganda kuch kelishni o'zgartirish mumkinligi - har xil jins va yoshdagi kishilar bilan Yengil atletika mashg'ulotlari o'tkazaverish imkonini beradi.

Bu mashqlarning ko'pchiligi ijro texnikasi jihatidan qiyin emas, o'rgatish uchun oson va ularni oddiy may-donchalar yoki ochiq joylarda bajaraversa bo'ladi. Yengil atletika mashqlarining shug'ullanuvchilarga barcha tana a'zolariga ijobiy ta'sir qilishi, ularning keng tarqalgan bo'lishiga sabab bo'ldi. Maktab bolalarining va yoshlarning jismoniy tarbiyasi dasturlarida ham har xil sport turlaridagi mashg'ulot rejalarida ham, keksalarning jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida ham Yengil atletika mashqlariga keng o'rin berilgan barcha jismoniy madaniyat jamoalarida, ko'ngilli sport jamiyatlarida, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida va boshqa tashkilotlarda Yengil atletika seksiyalari yetakchi o'rinda turadi.

2. Fanning mazmuni va maqsadi

Fanni o'qitishdan maqsad: Oliy ta'lim muassasi talabalarining Yengil atletika fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarining shakllantirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida Yengil atletika vositalaridan samarali foydalanish. Yengil atletikaning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berish, talabalarni Yengil atletika sport turining texnikasi bilan tanishtirish, ularni Yengil atletika bo'yicha musobaqalar o'tkazishda hakamlik qilish qoidalarini o'rgatib borishdan iborat.

3. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari,

Yengil atletika va uning turlari rivojlanishining tarixiy tavsifi;

O'zbekistonning jismoniy tarbiya tizimida Yengil atletikaning o'rni;

Yengil atletika bo'limlari va ularning turkumlanishi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;

- Yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish;

- Yengil atletika bilan shug'ullantirishda umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlarini bajarishni o'rgatish;

- Yengil atletika bilan shug'ullantirish va uni o'rgatish asoslari;

- Yengil atletika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlarni o'rgatish; ta'lim muassasalarida Yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish; sportcha yurish texnikasini o'rgatish metodikasi; yugurish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi; sakrash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi; uloqtirish

turlari texnikasini o'rgatish metodikasi, ko'p kurash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi bo'yicha ***ko'nikmalarga ega bo'lishi***;

- Yengil atletika bo'yicha o'quv ishlarini tashkil qilish, rejalashtirish va hisobini yuritish; Yengil atletika bo'yicha sport inshootlari, jihozlari va ularni ishlatish ***to'g'risida malakalarga ega bo'lishi kerak***.

4. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

ma'ruza; keys-stadi; individual loyihalar; taqdimotlar qilish; guruhlarda ishlash; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish;

“BBB”, “Tarozi”, “SWOT-tahlil”, “Sinkveyn”, “FSMU”; o'yin, musobaqa, aylanma trenirovka, takroriy mashq, o'zgaruvchan mashq, qat'iy tartiblashgan mashqlar.

5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari.
2. Yengil atletika va uning turlari rivojlanishining tarixiy tavsifi.
3. O'zbekistonning jismoniy tarbiya tizimida Yengil atletikaning o'rni.
4. Yengil atletika bo'limlari va ularning turkumlanishi.
5. Yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish.
6. Yengil atletika bilan shug'ullantirishda umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlarini bajarishni o'rgatish.
7. Yengil atletika bilan shug'ullantirish va uni o'rgatish asoslari.
8. Yengil atletika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlarni o'rgatish.
9. Ta'lim muassasalarida Yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish.
10. Sportcha yurish texnikasini o'rgatish metodikasi.
11. Yugurish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi.
12. Sakrash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi.
13. Uloqtirish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi;
14. Ko'p kurash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi.
15. Yengil atletika bo'yicha o'quv ishlarini tashkil qilish.
16. Yengil atletika bo'yicha sport inshootlari, jihozlari va ularni ishlatish.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. AbdullaYev M.J., Olimov M.S., To'xtaboYev N.T. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi. Darslik. “Barkamol fayz media” nashriyoti Toshkent-2017 y. 620 bet
2. AbdullaYev M.J. Sport mahoratini oshirish (Yengil atletika). Darslik. “Cho'lpon nomidagi nashriyot va matba ijodiy uyi” Toshkent2019 y. 472 bet
3. Normurodov A.N. Yengil atletika. Toshkent: O'quv-uslubiy qo'llanma. ToshDSHI 2002 yil.

4. Niyozov I. Yengil atletika. Farg‘ona: O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona nashriyoti 2005 yil.
5. O‘ktamov D.T Jismoniy tarbiya va sport o‘quv qo‘llanma Andijon: 2020 yil
6. O‘ktamov D.T YYengil atletika va uni o‘qitish metodikasi (uzoq masofaga yugurish texnikasini o‘rgatish) o‘quv qo‘llanma Andijon, Toshkent: 2022 yil
7. Legkaya atletika darslik Toshkent-2022 . R.Sh.Isakov, A.S.Yuldashev, Y.V.Kotlov, B.M.Satkulov, D.T.O‘ktamov

Qo‘shimcha adabiyotlar:

8. MirziyoYev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.
9. Sh.MirziyoYev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016 y.
10. Sh.MirziyoYev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.“O‘zbekiston” NMIU, 2016 y.
11. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. Abdullayev M.J., Smurugina L.V. Organizatsiya fizkulturno

Axborot manbalari

1. <https://prezident.uz>
2. <https://uz.atletks.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://uza.uz>
5. <http://ziyonet.uz>
6. <https://edu.uz>
7. <https://minsport.uz>
8. <https://sportedu.uz>
9. <https://www.gov.uz>

7. Soatlar/Kreditlar

1-2-semestr kredit modul miqdori – 6

Ta’lim turi	Ma’ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta’lim	Jami
Kunduzgi	-	72-72	-	108-108	360
Yillik, jami	-	72-72	-	108-108	360

8. Fanning tarkibiy tuzilishi

Kunduzgi: 1-2 Semestr

№	Mavzular	Ma`ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim
1	Boshlang'ich sport mashg'ulotlarida tayyorgarlik turlari		6		12
2	Jismoniy tayyorgarlik		10		12
3	Umumiy jismoniy tayyorgarlik		10		12
4	Maxsus jismoniy tayyorgarlik		10		12
5	Sport texnikasi o'rganish		6		10
6	Harakat ko'nikmasini mustahkamlash		8		10
7	Sport texnikasini o'rganish		6		10
8	Sport taktikasi o'rganish		8		10
9	Turlar bo'yich taktik tayyorgarlik		8		10
10	Sportchining psixologik tayyorgarligi		6		10
11	Sportcha yurish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish		6		10
12	Sportcha yurish texnikasiga o'rgatish uslubiyati		6		10
13	Sakrash turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish		8		12
14	Yugurib kelib uzunlikka sakrash turlari texnikasiga o'rgatish uslubiyati		8		12
15	Uzunlikka sakrovchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi		6		12
16	Yugurib kelib balandlikka sakrashlar texnikasini o'rgatish uslubiyati		8		10
17	Uloqtirish turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish		6		12
18	Nayza uloqtirish texnikasini		6		10
19	Disk uloqtirishning rivojlanishi		6		10
20	Yadro itqitish texnikasi		6		10
Jami:			144		216

9. Talabalar bilimni baholash

Maksimal va saralash ballari	Amaliy mashgʻulotlarida 60 ball			jami ball	Yakuniy nazorat	Jami ball
	Oraliq nazoat uchun	Joriy nazorat uchun	Mustaqil taʼlim uchun	60	40	100
Maksimal bal 100%	15	15	30			
Saralash bali 60%	Saralsh bali 36 ball					
Nazoratni oʻtkazish muddati va shakli	Fanning 70 foiz oʻzlashtirilganda (yozma amaliy ish,)		Amaliy mashgʻulotlar davomida		Amaliy shaklda oʻtkaziladi	

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Y_{aB} = JN + ON + Y_{aN}$$

Bu yerda:

JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; Y_{aN} — yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to'play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho (90-100 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mazmun-mohiyatini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa.

b) 4 baho (70-89,9 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mazmun-mohiyatini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

c) 3 baho (60-69,9 ball) olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

d) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

Oraliq va Joriy nazoratidan to'playdigan ballarning mezonlari

Oraliq baxolash – ball											
Amaliy me'yoriy test tizimi.											
Yigitlar Yugurib kelib uzunlikka sakrash (m. sm)						Qizlar Yugurib kelib uzunlikka sakrash (m. sm)					
60-69 ball		70-89 ball		90-100 ball		60-69 ball		70-89 ball		90-100 ball	
Natija	ball	Natija	Ball	Natija	ball	natija	Ball	natija	Ball	Natija	Ball
5.00	9	5.15	10.5	5.30	13.5	4.20	9	4.35	10.5	4.50	13.5
5.05	9.7	5.20	12	5.35	14	4.25	9.7	4.40	12	4.55	14
5.10	10.4	5.25	13.4	5.40	15	4.30	10.4	4.45	13.4	4.60	15
4.99 natija qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:						4.19 natija qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:					
Joriy baxolash – ball											
Amaliy me'yoriy test tizimi.											
Yigitlar 100metrga yugurish (soniya)						Qizlar 100metrga yugurish (soniya)					
60-69 ball		70-89 ball		90-100 ball		60-69 ball		70-89 ball		90-100 ball	
Natija	ball	Natija	Ball	natija	ball	natija	Ball	natija	Ball	Natija	Ball
13.5	9	13.2	10.5	12.9	13.5	16.5	9	15.6	10.5	15.0	13.5
13.4	9.7	13.1	12	12.8	14	16.2	9.7	15.4	12	14.8	14
13.3	10.4	13.0	13.4	12.7	15	16.0	10.4	15.2	13.4	14.6	15

13.6 natija qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:						16.6 natija qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:					
Yigitlar 1000 metrga yugurish (minut, soniya)						Qizlar 1000 metrga yugurish (minut, soniya)					
60-69 ball		70-89 ball		90-100 ball		60-69 ball		70-89 ball		90-100 ball	
Natija	Ball	Natija	Ball	natija	ball	natija	Ball	natija	Ball	Natija	Ball
3.11	9	3.05	10.5	2.59	13.5	4.22	9	4.10	10.5	3.58	13.5
3.09	9.7	3.03	12	2.57	14	4.18	9.7	4.06	12	3.54	14
3.07	10.4	3.01	13.4	2.55	15	4.14	10.4	4.02	13.4	3.50	15
3.12 natija qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:						4.23 natija qoniqarsiz 2 baho (0-59,9 ball) bilan baholanishi mumkin:					

10. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'trasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi.

O'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo'lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig'i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo'lmasa, ish qabul qilinmaydi.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Fakultet dekani:

Kafedra mudiri:

Tuzuvchilar:

F.Odilov

Z.Jumaqulov

X.Madaminov

D.T.O'ktamov

B.M.Satkulov

X.R.O'tkirov

